



## BO`LAJAK O`QITUVCHILARDA PEDAGOGIK IMIDJNI SHAKLLANTIRISH

*Andijon davlat pedagogika instituti*

*Pedagogika fakulteti*

*Boshlang`ich ta`lim y o`nalishi*

*3-bosqich 307-guruh talabasi*

*Shuxratova Marjona Zuxridin qizi*

***Kalit so`zlar:*** imidj, nutq madaniyati, pedagogik takt, kasbiy kompetensiya

***Annotatsiya:*** Ushbu maqolada pedagogik imidj tushunchasi, uning asosiy komponentlari – tashqi ko`rinish, nutq madaniyati, axloq va muomala madaniyati, kasbiy kompetentlik hamda psixologik fazilatlar yoritiladi. Shuningdek, kelajakdagi muvaffaqiyatli o`qituvchilarning imidjini shakllantirishda e`tibor qaratilishi kerak bo`lgan asosiy tavsiyalar berilgan.

***Annotation:*** This article discusses the importance of forming a **pedagogical image** in future teachers and the factors influencing its development. The pedagogical image reflects the professional appearance, communication culture, ethical behavior, and personal qualities of a teacher. The study analyzes the theoretical foundations and practical approaches to developing pedagogical image competence among teacher training students. Special attention is given to modern pedagogical methods, innovative technologies, and educational environments that contribute to the development of professional image. The research emphasizes that a well-formed pedagogical image enhances the effectiveness of teaching activities and strengthens positive relationships between teachers and students

***Аннотация:*** В данной работе рассматривается вопрос формирования педагогического имиджа у будущих учителей и факторы, влияющие на его развитие. Педагогический имидж отражает профессиональный облик учителя, культуру общения, этическое поведение и личностные качества педагога. В исследовании анализируются теоретические основы и



*практические подходы к развитию компетенции педагогического имиджа у студентов педагогических направлений. Особое внимание уделяется современным педагогическим методам, инновационным технологиям и образовательной среде, способствующим формированию профессионального имиджа. Подчеркивается, что сформированный педагогический имидж повышает эффективность педагогической деятельности и укрепляет позитивные взаимоотношения между учителем и учащимися.*

## **Kirish**

Barchamizga ma`lumki, hamma davrda ham o`qituvchi faqat o`quvchilarga bilim beruvchi shaxs bo`libgina qolmay, balki u jamiyatda har tomonlama namuna bo`luvchi inson sifatida namoyon bo`ladi. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev o`z nutqlaridan birida pedagoglik kasbini “dunyodagi eng ulug` va oliyjanob ish” deya ta`kidlaganlari ham bu fikrimizning yorqin dalilidir. Bugungi kunda pedagogning vazifasi yanada ortdi: u fanga oid bilimlarni berishi, tarbiyaviy ishlarni amalga oshirishi bilan bir qatorda o`quvchilarning axloqiy, psixologik va ijtimoiy rivojlanishini nazorat qilishi, shuningdek, o`z harakati bilan o`quvchilar uchun namunali imidj egasiga aylanishi zarur.

Imidj – bu shaxsning tashqi ko`rinishi, xulq-atvori, qadriyatlari hamda jamiyatdagi o`rni orqali shakllanadigan umumiy tasavvur hisoblanadi. Ayniqsa, kasbiy faoliyatda imidj insonning professional qiyofasini belgilab, unga bo`lgan munosabatni shakllantiradi. Shu nuqtai nazardan pedagogik imidj tushunchasi bugungi kunda ta`lim sohasidagi muhim ahamiyat kasb etuvchi atamalar qatoriga kiradi. Ayniqsa, bo`lajak o`qituvchilarda pedagogik imidjni shakllantirish masalasi ularning kelajakdagi kasbiy faoliyatida asosiy o`rin egallaydi. Imidj faqat tashqi ko`rinish bilan cheklanib qolmay, balki o`qituvchining nutq madaniyati, ularning psixologik va kasbiy kompetentligi, pedagogik takt hamda axloqiy fazilatlarining uyg`unlashuvi natijasida shakllanadigan murakkab ijtimoiy-pedagogik hodisadir. Ushbu komponentlarning har biri o`qituvchi shaxsini shakllantirishda alohida ahamiyatga ega.



Nutq madaniyati-pedagogik imidjning muhim tarkibiy qismlaridan biri hisoblanadi. O`qituvchi nutqining ravon, aniq va tushunarli bo`lishi o`quvchilar bilan samarali muloqotni ta`minlaydi. Novator o`qituvchilarda ilmiy tahlil qilish va o`z ishini tanqidiy ko`z bilan baholash xususiyatlari mavjud bo`ladi. Shuningdek, ular murakkab yoki boshqalar o`ziga ishonmaydigan sharoitlarda ham o`z pedagojik qarorlari to`g`ri ekanligiga ishonadi. Kaykovus ham bejizga „ Hamma qobiliyatlardan eng yaxshisi –nutq qobiliyatidir” deb aytmagan.

Psixologik kompetentlik o`qituvchning o`quvchilarni tushunish va ularga individual yondashish qobiliyatini anglatadi. O`qituvchi bolaning qiziqishi va ruhiy holatlarini bilishi uning metodlar qo`llashida ham qo`l keladi.

.Kasbiy kompetentlik - pedagogning o`z fani bo`yicha bilimlari ,metodik tayyorgarligi va amaliy mahoratining uyg`unlashuvidir. Bu kompetentlik o`qituvchiga o`quv jarayonini samarali tashkil qilish va dars materiallarini aniq yetkazish ,o`quvchilar bilim darajasini oshirishga xizmat qiladi. Hozirgi kunda esa kasbiy kompetentlik faqat fan bo`yicha bilimlarni emas, balki pedagogdan fan, metodika va amaliy ko`nikmalarni uyg`unlashtirib ,o`quv jarayonini tashkil etishni talab qiladi.

Pedagogik takt bu o`qituvchi kasbiy mahoratining asosi bo`lib ,o`quvchilarga barcha talablar asosida pedagogik ta`sir o`tkazish, muloqotni insonparvarlik tuyg`ulari asosida o`rnatish o`lchovidir. Pedagogik taktning ahamiyati shundaki u o`qituvchini o`quvchi bilan ishonchli munosabatini ta`minlaydi , tarbiyaviy ishlarni yumshoq holda samarali qiladi va salbiy vaziyatlarda ham ijobiy natijaga erishishga yordam beradi. Masalan, o`quvchining xatosini to`g`ridan-to`g`ri tanqid qilish o`rniga konstruktiv tavsiya berish pedagogik taktning muhim ko`rinishidir.

Shuningdek, pedagogik imidjning tashqi qismi ham muhimdir. Jumladan, kiyinish madaniyati milliy an`analar va ta`lim muassasasi talablari doirasida tartibli va estetik bo`lishi lozim. Bu ta`lim muhitida ijobiy taassurot qoldiradi. Bir jumla bilan aytganda, pedagogik imidj o`qituvchining so`zsiz ta`sir etuvchi kasbiy vositasi sifatida namoyon bo`ladi.



Ta`lim muassasalarida “pedagogik imidjni” shakllantirish jarayoni murakkab va ko`p qirralidir. Bu jarayon bo`lajak pedagoglarning kasbiy va shaxsiy rivojlanishi uchun muhim ahamiyatga ega. Pedagogik imidjni shakllantirish quyidagi yo`llar orqali amalga oshiriladi:

1. Oliy ta`limdagi nazariy mashg`ulotlar, pedagogik fanlar va metodika darslari bo`lajak o`qituvchilarga tizimli ravishda berib borilishi ularni fan bo`yicha ma`lumotlar bazasini to`ldiradi. Bu darslar nafaqat pedagogik tafakkurni shakllantiradi, balki o`quv jarayonini samarali rejalashtirish va darsni tashkil etish qobiliyatlarini ham rivojlantiradi.

2. Amaliy pedagogik faoliyat (ta`lim bilan birgalikdagi amaliy faoliyatlar) O`quvchilar bilan real aloqa o`rnatish orqali ular o`z pedagogik imidjini sinab ko`radi. Amaliyot davomida o`quvchilarning xatti-harakatlarini kuzatadi, tajriba orttiradi.

3. Nutq madaniyati va kommunikativ ko`nikmalarini rivojlantirish oliy ta`limda ham jamoaviy faoliyat orqali samarali bo`ladi. Treninglar, rolli o`yinlar, interaktiv mashg`ulotlar nutq madaniyatini amalda shakllantiradi.

4. Refleksiya va o`zini baholash- talaba o`z faoliyatini tahlil qilib, kamchiliklarini aniqlash orqali o`z imidjini yanada rivojlantiradi. Xatolarini o`rganish orqali esa talaba kelajakda bularni takrorlamaslikka harakat qiladi.

5. Ustoz-shogird an`anasi va mentorlik bo`lajak pedagoglarning rivojlanishida muhim ahamiyatga ega. Amaliyot davomida tajribali pedagoglar bilan muloqot qilish jarayonida talaba o`z bilim va ko`nikmalarini oshiradi. Boshqa komponentlardan farqli ravishda bu yo`l bevosita amaliy interaktiv aloqaga, ustozning shaxsiy tajribasi va motivatsiya berishga asoslanadi. Shu sababli ham bu komponent bo`lajak pedagog imidjini shakllantirishda muhim rol o`ynaydi.

6. Raqamli texnologiyalar va onlayn platformalardan foydalanish. Zamonaviy ta`lim jarayonida raqamli texnologiyalar bo`lajak pedagoglar uchun yangi imkoniyatlar yaratadi. Onlayn platformalar orqali ular darslarni interaktiv usulda o`tkazishni, o`quvchilar e`tiborini ushlab turishni va murakkab mavzularni tushunarli yetkazishni o`rganadi.



Xulosa qilib aytganda pedagogik imidj o`qituvchining kasbiy faoliyatida muhim ahamiyatga ega va har bir zamonaviy pedagog o`z ustida muntazam ishlashi, o`z faoliyatini tahlil qilishi va yangiliklarga ochiq bo`lishi orqaligina o`z imidjini rivojlantiradi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. G`aniyev O.A, Sanaqulova Z.A. O`qituvchilarning kasbiy kompetentligini rivojlantirish.
2. R.Mavlonova, B.Normurodova, N.Rahmonqulova Tarbiyaviy ishlar metodikasi
3. Fayziyev M.A. Pedagogik mahorat va pedagogik akmeologiya
4. M.R.Turaboyeva Pedagoglik kasbiga kirish